

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.03/30.12.2019.PED.78.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

OTAMURODOVA SHAMSU QAMAR OTAMURODOVNA

**DIVERSIFIKATSIYA TAMOYILI ASOSIDA BO‘LAJAK
BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KREATIVLIK
POTENSIALINI OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(ONA TILI O‘QITISH METODIKASI FANI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ona tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna

Diversifikatsiya tamoyili asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish metodikasini takomillashtirish (ona tili o'qitish metodikasi fani misolida).....5

Отамуродова Шамсу Камар Отамуродовна

Совершенствование методики повышения креативного потенциала будущих учителей начальной школы на основе принципа диверсификации (на примере методики преподавания предмета родного языка).....25

Otamurodova Shamsu Kamar Otamurodovna

Improving the methodology for increasing the creative potential of future primary school teachers based on the principle of diversification (using the example of the methodology for teaching the subject of native language).....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.03/30.12.2019.PED.78.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

OTAMURODOVA SHAMSU QAMAR OTAMURODOVNA

**DIVERSIFIKATSIYA TAMOYILI ASOSIDA BO‘LAJAK
BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KREATIVLIK
POTENSIALINI OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(ONA TILI O‘QITISH METODIKASI FANI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ona tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.Phd/Ped5118 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Termiz davlat universiteti veb-sahifasida (www.tersu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Aslonova Orzigul Pirimovna**
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Rasmiy opponentlar: **Eshmo'mimov Asqar Allamurodovich**
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Muxtarova Lobar Abdimannabovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Yetakchi tashkilot: **Navoiy davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99876) 223-13-11; 221-74-55. Faks: 0(376) 221-76-90; web-site: www.tersu.uz; e-mail: info@tersu.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99876) 223-13-11; 221-74-55. Faks: 0(376) 221-76-90; web-site: www.tersu.uz; e-mail: info@tersu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.X.Shomirzayev,
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor.

A.B.Narbayev,
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent.

U.B.Abdiyev
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d., dotsent.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv sharoitining bir qator ijtimoiy talablariga javob bera oladigan, ilmiy, uslubiy va texnologik kompetensiyaga, professional qobiliyat va kreativ fikrlashga ega mutaxassislarni tayyorlash zarurati ortib bormoqda. Jumladan, UNESCOning “A contribution to the World Higher Education Conference”¹ nomli konferensiyasida ham oliy ta’limda talabalar faolligini oshirish, oliy ta’lim muassasalarining turlari va dasturlar mazmunini takomillashtirish, ta’lim texnologiyalarining xilma-xilligi orqali bo’lajak mutaxassislarda moslashuvchan malakalar to’plamini talab qiladigan mehnat bozoriga tayyorlikni rivojlantirish muammolari atroflicha muhokama qilingan.

Dunyo miqyosida nafaqat o’quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga, balki doimiy ravishda o’z-o’zini faollashtirish, o’quv-tarbiyaviy faoliyatni yangi modellar va texnologiyalarni tizimli ravishda ishlab chiqishga yo’naltira oladigan, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun muhim bo’lgan yangi ijodiy g’oyalarni uyg’un ravishda birlashtira oladigan bo’lajak pedagoglarning kreativ fikrlashini rivojlantirish bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. UNESCO tadqiqotiga ko’ra kreativlik bo’lajak pedagoglarning eng muhim fazilatlaridan biri sifatida Jahon iqtisodiy forumi ma’ruzalarida doimo tilga olinadi. Oliy ta’limda diversifikatsion yondashuv tamoyilining ustivorligini ta’minlash hamda “Yangi iqtisodiyot va jamiyat” markazi tomonidan 2022-yilda tayyorlangan “Ish o’rinlari kelajagi” tendensiyasiga ko’ra, kreativlik murakkab va tanqidiy muammolarni kompleks hal qilish qobiliyatlaridan keyin uchinchi o’ringa chiqqanligi talabalarning kreativlik potensialini yuzaga chiqarishga bo’lgan talabni kuchaytirmoqda.

Mamlakatimizda ham oliy ta’lim tizimida talabalarning kreativ kompetensiyalarining to’liq rivojlantirilishiga erishish imkoniyatlari kengaymoqda. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish ko’p komponentli jarayon bo’lib, uning tarkibi fan, psixologik, pedagogik, uslubiy hamda ijodiy yondashuvga asoslangan tafakkurni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o’z ichiga oladi. O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “individual ta’lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko’nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o’quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta’lim dasturlarini shakllantirish”² asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Shunga ko’ra bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kreativ tafakkur yuritish kompetensiyalarini shakllantirish, ta’lim mazmunini aniqlashtirish orqali joriy holatini tahlil qilish, didaktik

¹ Higher education global data report (Summary). A contribution to the World Higher Education Conference 18-20 May 2022. The 3rd UNESCO World Higher Education Conference (WHEC 2022) took place in Barcelona, Spain.

² O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y. <https://lex.uz/docs/-4545884>

imkoniyatlarini o'rganish, o'qitish sifatiga ta'sir etuvchi omillarni loyihalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari hamda shuningdek sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz", "Milliy taraqqiyot yo'nalishimizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz"³, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch"⁴ kabi asarlari tadqiqot uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Respublikamiz olimlari tomonidan talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish, kreativlik potensialini aniqlash, yuzaga chiqarish muammolari keng tadqiq etilgan bo'lib, ushbu muammo E.G'oziyev, M.G.Davletshin, Z.Nishonova, B.R.Adizov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, O.A.Qo'ysinov, T.J.Ismoilov, S.Yo'ldoshev, N.Fayzullayeva, D.Suyunov, R.Ishmuratova, O.Sh.Uralov, N.G.Muminov, A.E.Primov, S.M.Buzrukxonovlar tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan⁵.

³ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston NMIU, 2019. – 484 b.; Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston NMIU, 2017. – 592 b.

⁴ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.: Sharq, 1998. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008. – 176 b.

⁵ G'oziyev E. G'.Oliy maktab psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi. 1997. –106 b. Davletshin.M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. T.: O'zbekiston. 1999.-30 b. Nishonova Z. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari: Psixol. fan. dok. diss. avtoreferati. – Toshkent: 2005. – 14-b. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. diss. – Toshkent: 2003. – 76 b. Muslimov N.A., Usmonboyeva M. va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 43-b. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: ped. fan. dokt.... diss. – Toshkent: 2019. – 268 b. Ismoilov T. J., Burxonov R. R. O'qituvchi kreativlik potensialini aniqlash omillari // "Xalq ta'limi". – №4. – 45-48 b. Yo'ldoshev S.N. Boshlang'ich ta'lim ixtisosligi talabalarini texnologik ta'limga kreativ yondoshuvga tayyorlash metodikasi. O'quv qo'llanma. – Qarshi "Fan va ta'lim". – 2021. – 47- b.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, kognitiv va kreativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar M.Ye.Bershadskiy, I.Ye.Bryakova, A.D.Deykina, A.V.Karpov, M.M.Kashapov, T.S.Tabachenko, N.F.Vishnyakova, A.V.Xutorskoy kabilar tomonidan olib borilgan bo'lib, ular muammoni ilmiy asoslashga imkon beradi. V.I.Baydenko, D.I.Vafina, R.A.Valeeva, A.N.Ganicheva, M.V.Artyuxov, T.I.Shakirova, L.Xarchenko, N.V.Nedosekina, A.K.Kollegov, E.V.Brizgalinalar esa o'z tadqiqotlarida diversifikatsiyaning ta'lim sohasidagi o'rni va imkoniyatlarini yoritib berganlar⁶.

Xorijiy mamlakatlardan P.Drapeau, E.Villalba, S.N.Kerkhoffa, M.Eunice, M.Fryer, S.Carol kabi tadqiqochi-olimlar shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning metodik ta'minotini takomillashtirishga katta hissa qo'shganlar⁷.

Biroq, ta'limni diversifikatsiya qilish jarayonining umumiy tavsifi, ona tili ta'limida diversifikatsiya tamoyilidan foydalanish mazmuni va uning o'ziga xos xususiyatlari, diversifikatsion yondashuv asosida talabalarda kreativ potensialni rivojlantirishning funksional modeli hamda uning metodik shart-sharoitlari maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida diversifikatsiya tamoyili orqali kreativ potensialni rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat

⁶ Бершадский М.Е. Когнитивная технология: процедурные компоненты личностного развития // Современное дополнительное профессиональное педагогическое образование. - 2017. - №1. - С. 65-69. Брякова И.Е. Формирование креативной компетентности студентов-филологов педагогического вуза: монография / Мин-во образования и науки РФ, Оренбург. гос. пед. ун-т. Оренбург : Изд-во ОГПУ, 2010. — 380 с. Хуторской А. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // "Народное образование". - 2003. - №2. - 58-64 с. Байденко В. И. Диверсификация среднего профессионального образования: сущность, условия, пути реализации: автореф. дис. канд. пед. наук: 13.00.01. - М., 1995. - 16 с. Вафина Д. И., Валеева Р. А. Альтернативное образование в США: современное состояние и тенденции развития. Учебно пособие. - Казан: Изд-во "Отечество". - 2014. - 48 с. Вишнякова Н. Ф. Креативная психопедагогика. Психология творческого обучения. Учеб. пос. Минск: НИО. - 1995. - 45 с. Ганичева. А. Н. Диверсификация образования взрослых и рынок образовательных услуг столицы: результаты мониторинга, МГПУ. Уч. пособие. - 2016. - 171 с. Артюхов М. В. Диверсификация муниципальной системы образования. Опыт и перспективы. Уч. пос. - М., "Образование". - 2003. - 123 с. Шакирова Т. И. Диверсификация в сфере образования // Вестник КГУ (Кемеровского государственного университета). - 2021. - №4. - 73-76 с. Харченко Л. Диверсификация современных вузов и требований, предъявляемых к научно-педагогическим кадрам // "Мир науки". - 2015. - №2. - 167-170 с. Недосекина Н. В. Диверсификация видов педагогической деятельности как отражение сущностных характеристик образования в постиндустриальном обществе // "Человек и наука". - 2013. - №2. - 70-73 с. Коллегов А. К. Диверсификация как основная тенденция развития высшего педагогического образования в России // Вестник ТГПУ. - 2010. - №4 (94). - 12-16 с. Бризгалина Э. В. Диверсификация современного философского образования: специализация "Философия образования" // Философское образование (Вестник АФФО). - 2010. - Вып. 5. - 141-156 с.

⁷ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014. - 188p. Villalba, E. [ed.] (2009) Measuring Creativity. Luxembourg: Office for Official Publications of the European Communities. Electronic resource. Kerkhoffa S. N., Cloudb M. E., Equipping teachers with globally competent practices: A mixed methods study on integrating global competence and teacher education, International Journal of Educational Research, (2020) й. - 103 p. Eunice M., Alencar L. S., Fleith D. S. Creativity in higher education: hallenges and facilitating factors. - 2017. Fryer, M., Collings, J. A. (1991a) Teachers' views about creativity. British Journal of Educational Psychology. 61, 207 p. CAROL S. DWECK. Mindset Changing the way you think to fulfil your potential. Copyright © Carol S. Dweck, Ph. D., 2017

universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi hamda “Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar bilimini takomillashtirish va umumiy rivojlantirishning psixologik-pedagogik aspektlari” asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diversifikatsiya tamoyili orqali kreativlik potensialini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish mazmunini ta’lim xizmatlari, dasturlari, tashkiliy shakllarining variativligini ta’minlovchi pedagogik paradigma orqali aniqlashtirish;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish jarayonining shaxsga qaratilgan, mundarijaviy va tashkiliy komponentlarini diversifikatsiyalash tamoyillarining amaliy tatbiqi orqali takomillashtirish;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish jarayonining funksional modelini o‘quv, o‘quv-tarbiyaviy hamda mustaqil faoliyat mazmuniga muvofiq verifikatsiya qilish asosida takomillashtirish;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish metodikasini auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda binar mashg‘ulotlar, anjuman-dars, reflektiv mashqlar hamda integrativ dasturlarni qo‘llashga doir potensial.uz sayti orqali takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ona tili o‘qitish metodikasi fani mashg‘ulotlarida diversifikatsiya tamoyili orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik potensialini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajribasinov ishlarida Termiz davlat universiteti, Namangan davlat universiteti va Qarshi davlat universitetlaridan jami 467 nafar boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini diversifikatsiya tamoyili orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik potensialini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga doir falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish, oliy ta’lim muassasalaridagi ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat), pedagogik eksperiment, natijalarni matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish mazmuni globallashuv sharoitidagi tezkorlik, ijtimoiy talablarga moslashuvchanlik, ta’lim xizmatlari, dasturlari, tashkiliy shakllarining variativligini ta’minlovchi pedagogik paradigma orqali aniqlashtirilgan;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish jarayonining shaxsga qaratilgan, mundarijaviy va tashkiliy komponentlari ijodiy topshiriqlarning nostandart yechimlarini taqdim etish, natijani baholay olish qobiliyatlarini rivojlantirish hamda diversifikatsiyalash tamoyillarining amaliy tatbiqi orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish jarayonining funksional modeli o'quv-tarbiyaviy faoliyatga innovatsion dars modellarini o'quv, o'quv-tarbiyaviy hamda mustaqil faoliyat mazmuniga muvofiq verifikatsiya qilish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish metodikasi auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda binar mashg'ulotlar, anjuman-dars, refleksiv mashqlar hamda integrativ dasturlarni qo'llashga doir potensial.uz sayti orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

diversifikatsiya tamoyili asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini rivojlantirish samaradorligi takomillashtirilgan;

diversifikatsiya tamoyili asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini oshirishda "Zamonaviy dars" nomli pedagogik dastur taklif etilgan hamda dastur orqali faoliyatni amalga oshirishning samarali metodikasi ishlab chiqilgan;

diversifikatsiya tamoyili orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini oshirishga doir veb-kvestlar tizimi ishlab chiqilgan hamda potensial.uz saytiga joylashtirilgan;

"Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" nomli o'quv qo'llanmasi nashr qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi diversifikatsiya tamoyili orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish muammosining metodologik, nazariy va metodik tahliliga tizimli yondashilganligi ilg'or xorijiy va milliy tajribalardan samarali foydalanilganligi hamda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan pedagogik eksperiment natijalari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tadqiqot davomida ishlab chiqilgan talabalarni diversifikatsiya sharoitida variativ ta'lim metodlaridan foydalanishga tayyorlash uchun o'quv qo'llanma, fanlarning elektron o'quv-uslubiy majmualari, ta'limiy elektron dasturlar va vizual animatsion roliklar tayyorlashning nazariy asoslari va metodikasining mazmuni bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati diversifikatsiya tamoyili orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini oshirishning takomillashtirilgan metodikasi, variativ vizual manbalarning mazmunini boyitishga xizmat qiluvchi pedagogik dastur, elektron saytlar, veb-kvestlar bilan boyitilganligi hamda tadqiqot muammosiga doir tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini oshirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish jarayonining shaxsga qaratilgan, mundarijaviy va tashkiliy komponentlari ijodiy topshiriqlarning nostandart yechimlarini taqdim etish, natijani baholay olish qobiliyatlarini rivojlantirish hamda diversifikatsiyalash tamoyillarining amaliy tatbiqi orqali takomillashtirilganligiga doir taklif va tavsiyalardan PZ-

20170930223-raqamli “Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyiha doirasida “Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ta’lim muassasalarining imkoniyatlari va pedagogik yo‘nalishlari” nomli 3-bo‘limini tayyorlashda foydalanilgan (Farg‘ona davlat universitetining 2023-yil 11-oktabrdagi 04/4976-sonli ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning diversifikatsiya tamoyili mazmuni, mohiyati, zarurati haqida ma’lumotga egalik darajasini rivojlantirishga erishilgan;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish jarayonining funksional modeli o‘quv-tarbiyaviy faoliyatga innovatsion dars modellarini o‘quv, o‘quv-tarbiyaviy hamda mustaqil faoliyat mazmuniga muvofiq verifikatsiya qilish asosida takomillashtirilganligiga doir ma’lumotlar boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi uchun nashr qilingan “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 28-martdagi 68-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 68-844-raqamli guvohnoma). Natijada talabalarning kasbiy muammolarni bartaraf etishda kreativ usullardan foydalanish jarayonining uslubiy ta‘minotini takomillashtirishga xizmat qilgan.

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish metodikasi auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda binar mashg‘ulotlar, anjuman-dars, refleksiv mashqlar hamda integrativ dasturlarni qo‘llashga doir potensial.uz sayti orqali takomillashtirilganligiga doir taklif hamda tavsiyalardan Termiz DU, Qarshi DU, Namangan DUda o‘tkazilgan pedagogik eksperiment davomida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 13-dekabrda 02/01-01-144-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning o‘quv-tarbiyaviy faoliyatga kreativ yondashuv imkoniyati, malakasini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 20 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, bitta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 2 ta xorijiy jurnallarda, 7 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 127 sahifani tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi,

nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar kiritilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Oliy ta’limni diversifikatsiyalash – zamonaviy ta’lim tizimini qurish tamoyili sifatida” deb nomlanib, bobda tez sur’atlarda davom etayotgan o’zgarishlar, respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning samarasi sifatida – ta’lim tizimi oldidagi maqsad va vazifalar; shaxsiy va kasbiy rivojlanishga erishish uchun umr bo’yi davom etadigan uzluksiz ta’limni ta’minlash; iqtisodiyotda, ijtimoiy hayotda va ilm-fanda sodir bo’lgan yangiliklarga muvofiqlashib borish; OTMLar bitiruvchilarining jamiyatda kechadigan yangilanishlar jarayonida kasblarning mazmun va faoliyat jihatdan kutiladigan o’zgarishi sharoitlariga shaxs va mutaxassis sifatida tayyor turishlariga erishish zarurati haqida fikr bildirilgan.

Shuningdek, mazkur bobda keyingi yillarda muammo yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarning tahliliga ham alohida e’tibor qaratilgan. Ko’rsatib o’tilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun ta’lim sohasining barcha bo’g’inlarida qo’llanilib kelinayotgan ilg’or pedagogik texnologiyalar, pedagogik innovatsiyalar, takomillashtirilgan metodikalar va qator ilmiy-amaliy tavsiyalar qatorida ta’limdagi diversifikatsiya tamoyilidan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tushuncha keng va tor ma’noda quyidagilarni anglatadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Diversifikatsiya mazmuni

“Diversifikatsiya” tushunchasini talqin etishga qaratilgan bir necha yondashuvlar mavjud:

bu shaxsning o’z rivojlanish yo’nalishini o’zi belgilashiga qaratilgan yangi pedagogik paradigma bo’lib, ta’lim tizimining tezkor o’zgarishlar, jamiyat ehtiyojlarini hisobga olish talablariga tezda moslashuvchanligi bilan xarakterlanadi;

ta'lim xizmatlari, dasturlari, ta'lim muassasalarining shakl va ko'rinishlarining muqobil variantlarda faoliyat ko'rsatishini ta'min etuvchi strukturaviy tizim shakllantirilishiga qaratilgan variativ strategiyadir.


“Diversifikatsiya” tamoyil sifatida ta'lim sohasiga tatbiq etilganda nisbatan keng ma'no kasb etadi:

ta'limda yangi faoliyat turlarining joriy etilishi va buning natijasida tizimda bosh maqsad, vazifa hamda funksiyalarning miqdor va sifat jihatdan yangilanishidir;

zamonaviy ta'lim diversifikatsiyasi ta'lim tizimini innovatsion strukturaviylashtirish tamoyillari sifatida qaraladi va buning samarasi o'laroq, o'qitish dasturlari va ta'lim berish bilan bog'liq xizmat ko'rsatishlar, ta'lim muassasalarining tur, shakl va ko'rinishlari variativ tarzda mazmun-mohiyatan yangilanadi. Bizning fikrimizcha, diversifikatsiya joriy etilmaydi, balki ijtimoiy-iqtisodiy zarurat sifatida yuzaga keladi va uning tabiiy ravishda tatbiq etilishi tegishli huquqiy hujjatlar yordamida tartibga solinadi.

A.Xutorskoy diversifikatsiya jarayonining sodir bo'lish sharoitlari haqida mulohaza yuritar ekan, uning asosiy alomat va xossalariga to'xtalib, shunday yozadi: “Diversifikatsiya, asosan, ta'limni individuallashtirishni davomli rivojlantirish, pedagogik texnologiyalarni differensiyalash, gumanitar va ijtimoiy-psixologik fanlarning ta'sir doirasini kengaytirish kabi vazifalarni bajarish orqali keng ma'noda tatbiq etiladi, deb hisoblash mumkin. Binobarin, oliy ta'limda diversifikatsiyaning sodir bo'lishi uchun sharoit yaratish orqali o'quv jarayonlarida nazariya va amaliyot o'rtasidagi muammolarga yechim topish mumkin”.

Bunda, bizningcha, ta'lim sohasining yaxlit holda, xususan, diversifikatsiya asosida usul, shakl va mazmun jihatdan tizimli ravishda o'zgarishi nazarda tutilmog'i lozim. Ta'lim sohasida kuzatilayotgan va kutilayotgan yangilanishlar qatorida diversifikatsiyaning natijasi o'laroq, biz yana quyidagilarga erishishimiz mumkin (2-rasmga qarang):



2-rasm. Diversifikatsiya jarayonining natijasi

Ta'lim sohasidagi diversifikatsiya jarayonining kechishi quyidagi konseptual holatlar asnosida sodir bo'ladi:

a) ta'limdagi diversifikatsiya uzluksiz ta'limning rivojlanish tamoyili sifatida pedagogik tizim diversifikatsiyasi bilan ta'lim muassasalari diversifikatsiyasining to'g'ri ma'nodagi yig'indisi (umumlashmasi) sifatida namoyon bo'ladi;

b) pedagogik tizimdagi diversifikatsiya uchta muhim komponentni o'z ichiga oladi. Bular shaxsga qaratilgan, mundarijaviy va tashkiliy komponentlar;

c) uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiya ko'zda tutadigan ta'lim dasturlari keng muqobil variantlilik xususiyatiga egaligi bilan ahamiyat kasb etadi;

d) ta'lim muassasasidagi o'qitish tizimi (barcha iqtisodiy va ta'limiy omillarni o'z ichiga olgan holda) u joylashgan mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-geografik sharoitlarni hisobga olishi lozim.

Ta'limga diversifikatsiyaning joriy etilishi, ta'lim tizimidagi ichki infratuzilmalarning murakkablasha borishini va ular quyidagilar hisobiga sodir bo'lishini nazarda tutadi:

yangi shakl va turdagi ta'lim muassasalarining tashkil topishi;

ayrim o'qitish shakllarining boshqa shakl tarkibiga singib ketishi;

ta'limning avvallari o'zaro bog'liq bo'lmagan turli shakl, tur va metodlarining umumlashib borishi;

ta'lim tashkilotlari faoliyat ko'lamining kengaya borishi;

ta'lim dasturlari mazmun-mundarijasining xilma-xillashuvi;

ta'lim texnologiyalaridan foydalanish erkinligining kengayishi.

Bizningcha, ta'lim xizmatlarining shakllanishi hamda jamiyatning talablari asosida rivojlanishi bilan uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiyaning yuzaga kelish shart-sharoitlari o'rtasida deyarli tafovut mavjud emas. Bundan kelib chiqadiki, bu ikki hodisa bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Diversifikatsiya asosida o'qitish shakllarining turli va variativ xususiyatli ekanligi, chuqurlashtirilgan o'qitish imkoniyatlarining mavjudligi, o'quv-metodik majmuani tanlash erkinligi o'qituvchidan, avvalo, o'z metodik paradigmasini o'zgartirishni talab qiladi. Buning hosilasi o'laroq, o'qituvchi:

1) ta'lim mazmun-mundarijasi;

2) o'qitish texnologiyasi;

3) o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchining roli kabi yo'nalishlarda o'z paradigmasini o'zgartirishiga to'g'ri keladi. O'qituvchi paradigmasi ta'lim mazmun-mundarijasi yo'nalishida o'zgarar ekan, bu o'zgarish diversifikatsiya tamoyiliga asoslanishi lozim. Dastlab mazmun-mundarija tarkibidagi yorqin va esda qolarli materiallar o'zgarishi hamda o'zgargan holda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari xotirasida muhrlanib qolishiga erishish lozim. Bu voqelikning psixologik ahamiyati ham mavjud bo'lib, u o'quvchini "yangiliklar, o'zgarishlar" tomonga yetaklaydi.

Diversifikatsiya tamoyilining keng miqyosda amalga oshirilishi uchun yuqorida keltirib o'tilgan talablarga javob bera oladigan diversifikatsiyaviy ta'lim

dasturi joriy etilishi mutlaqo yangi turdagi ta'lim imkoniyatlari, shart-sharoitlarning yaratilishini taqozo etadi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida izchillik bilan amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo'nalishi sog'lom fikrga ega, kasbiy kompetensiyalarni yuqori darajada o'zlashtirgan, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun xizmat qiluvchi, rivojlanish istiqbollari aniq belgilaydigan mutaxassislar tayyorlash masalasiga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur jihatni inobatga olib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev quyidagi fikrni qat'iy ta'kidlaydi: "Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'qitish metodikasi o'zgarmasa, jarayon innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilmasa, ta'lim sifati ham, muhit ham o'zgarmaydi".

Dunyo ta'lim amaliyotini tahlil qiladigan bo'lsak quyidagilar XXI asr qobiliyatlari (5K-modeli) sifatida e'tirof etilmoqda: 1) tanqidiy fikrlash (Critical thinking); 2) kreativ fikrlash, (Creativity); 3) hamkorlikda ishlash (Collaboration); 4) kommunikativlik (Communication); 5) uyg'unlikni ta'minlash, madaniy aloqadorlik (Connected-Culture). Ushbu qobiliyatlar kompetensiyaviy yondashuv asosida tasniflangan bo'lib, aytish mumkinki talabalarning kreativ potensialini rivojlantirish, uning metodik tizimini takomillashtirish va faol ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika va psixologiya fanlari doirasida shaxs kreativligini shakllantirish va rivojlantirish muammosi har tomonlama o'rganilib, zamonaviy sharoitda yosh mutaxassis kadrlardan kreativlik sifatlariga ega bo'lishni taqozo etmoqda. Shaxsning kreativlik potentsiali uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.

Shaxs tajribasi o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Uning yanada rivoj topishi esa shaxsda ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega individual sifatning yetarli darajada o'zlashtirilishini talab etadi.

Kreativ fikrlash tushunchalari mazmunini izohlashga doir ko'plab ta'riflar mavjud bo'lib, quyida ba'zilarini keltirib o'tamiz:

- kreativlik o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui (*Ken Robinson*);
- kreativlik (*lot., ing. "create" – yaratish, creative – yaratuvchi, ijodkor*) – shaxsning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.
- kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim (*Govard Gardner*);
- kreativlik muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lishdir" (*Emebayl*)

- kreativlik muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash hisoblanib, bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Har tomonlama fikrlash jarayonida muammo yechimini topish va muayyan faoliyat shakllarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi (*Patti Drapeau*).

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diversifikatsiya tamoyili asosida kreativlik potensialini oshirish metodikasi”** deb nomlanib, mazkur bobda kreativlik potentsiali, uning aspektlari mazmuni yoritib berilgan. Muammo yechimiga doir funksional model asosida mualliflik dasturi, saytlar, veb-kvestlar tizimi ishlab chiqilgan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diversifikatsiya tamoyili asosida kreativlik potensialini oshirish nuqtai nazaridan, har bir shaxs o'zini o'zi anglash va o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qodirdir. Bu kreativ potentsialga ega bo'lgan shaxs bo'lib, u ko'pincha obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra to'liq amalga oshirilmaydi. Shuning uchun ona tili ta'limi o'quv jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mavzusi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Chunki, ona tili ta'limining hal qilish uchun mo'ljallangan asosiy masalalari zamonaviy ta'lim tizimining vazifalari bilan bog'liq: jamiyatning ijodiy, faol, iqtidorli talabalarni shakllantirish va rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, millatning intellektual salohiyatini boyitish va rivojlantirishdan iborat.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diversifikatsiya tamoyili asosida kreativlik potensialini oshirishda ona tili ta'limi o'quv faoliyati bir tomondan, talabalarga ma'lum miqdordagi ilmiy bilimlarni berishi, ularda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishi, ikkinchi tomondan – ularda ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalashini nazarda tutadi. Ona tili ta'limining shaxs kamolotidagi o'rni ahamiyatli bo'lib, mazkur o'quv faoliyatisiz “madaniyatni oldinga siljita olish” mumkin emas.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diversifikatsiya tamoyili asosida kreativlik potensialini oshirishda ona tili ta'limi voqelikni o'z borlig'ining turli shakllarida aks ettiruvchi, shaxsning kognitiv va ijodiy faolligini (fikrlash, idrok etish, xotira, tasavvur) ta'minlashda ijtimoiy ahamiyatga ega.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diversifikatsiya tamoyili asosida kreativlik potensialini oshirish borasida ona tili ta'limining o'ziga xos xususiyatini K. D. Ushinskiy yuqori baholagan. Uning fikricha: “ona tili g'alati o'qituvchi, u hayratlanarli darajada oson, qandaydir erishib bo'lmaydigan oson usul bo'yicha dars beradi. Boshqa o'quv fanlari orasida ona tilidek insonni rivojlantiradigan hech narsa yo'q”.⁸

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diversifikatsiya tamoyili orqali kreativlik potensialini oshirishda ona tili ta'limi o'quv faoliyatiga o'zgarish joriy etilar ekan, bu o'zgarishlarning samarali va keng qamrovli bo'lishi uchun ta'lim oluvchi an'anaviy shakl, tur, ko'rinish hamda metodlarga o'xshamagan mutlaqo yangi sharoitlarda o'z ta'limiy ehtiyojini qondirishi va pedagogik praksiologiyaga

⁸ Ушинский К. Д. Педагогические сочинения: В 6 т. Т. 2. Сост. С.Ф.Егоров. М.: Педагогика, 1998. 90с.

muvofiq ta'lim muassasalarining vertikal yoki gorizontal ierarxiyasida o'z ehtiyojiga mos keluvchi darajani izlashi tabiiy. Bu esa bo'lajak mutaxassislarni kreativlik potensialini oshirishga samarali xizmat qiladi.

Kreativlik bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun faoliyatlilik xususiyati bilan ahamiyatli bo'lib, u bilish obyektiga (yoki faoliyat obyektiga) oid axborotlarni sifat va miqdor jihatdan o'zgarmagan holda qabul qilish, uni qayta ishlash va yangi axborot hosil qilish kabi mahoratlarning yaxlit holdagi in'ikosi sifatida talqin etiladi.

Kreativlik uchun ijodiy qobiliyat va yuksak darajadagi intellektning o'zigina yetarli emas. Shaxs yuksak darajada kreativ bo'lishi uchun yana bir qator psixologik xususiyatlarga, jumladan, muvaffaqiyatga erishish istagi, o'ziga bo'lgan to'liq ishonch, intilish, kommunikativ munosabatlarda o'zini namoyon qilish kabi sifatlarga ega bo'lishi lozim. Kreativlik quyidagi faoliyat turlari asosida namoyon bo'ladi:

- intellektual kreativlik;
- ijodiy kreativlik;
- faoliyatdagi kreativlik.

Diversifikatsiya tamoyili asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini oshirishda "kreativlik", "ijodiylik", "ijodiy qobiliyat", "ijodiy faollik" kabi fenomenlarning tub negizi sifatida "kreativlik potentsiali" tushunchasi ham keng qo'llaniladi. Bizningcha, ijodiylik va kreativlik bilan bog'liq barcha sifatlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini yuzaga chiqarishdan boshlanadi. Bu masalaga turli ta'riflar berilgan bo'lib, bizningcha, "kreativ potentsial – bu shaxsning ichki imkoniyatlari, yuzaga chiqmagan yoki (boshqa shaxs tomonidan yoki faoliyat davomida) kashf etilmagan qobiliyatlari majmuasi bo'lib, faoliyatning muayyan davrida yuzaga chiqishining ehtimoliy sharoitlari mavjudligi bilan xarakterlanadi".

Diversifikatsiya tamoyili asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish, bizningcha, ta'limning turli rasmiy va norasmiy shakllari, innovatsion modellari, texnik vositalari hamda klassik usullar integratsiyasi asosida ta'lim oluvchiga ijobiy emotsiya, yuksak darajadagi motivatsiya berish asosida mundarijaviy jihatdan erkinligini, shaxs sifatlari hamda ichki yashirin, tabiiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish jarayonidir.

Diversifikatsiya tamoyili asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini oshirishda verifikatsiya qilish asosida o'quv-bilish jarayonidagi faollik darajasida namoyon bo'ladigan alomatlar quyidagilar:

- ma'lum bir narsani o'rganishga tayyorlik (ta'lim oluvchidagi ishtiyoq, harakat);
- muayyan bir faoliyat turiga (yoki mashg'ulotga) qiziqish;
- "har qanday masalaning yechimi bo'ladi", mazmunidagi qarashning ustuvorligi (yoki insonning qo'lidan kelmaydigan ish yo'q, degan tasavvurning mavjudligi);
- optimizm va ko'tarinkilik;

qat'iyat va o'ziga bo'lgan mustahkam ishonch;
faoliyatga emotsional qiziqish bilan kirishish.

Diversifikatsiya tamoyili asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish ijodkorlikni o'z tarkibiga olgan fenomen bo'lgani holda bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahorat shakllanishi uchun eng birlamchi negiz ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini baholay olish uchun unda bo'lishi lozim bo'lgan sifatlar quyidagilar bilan ifodalanadi:

1. Intellektual sifatlar: fikrlash, axborotlarni tahlil qilish, faktlarni umumlashtirish, xulosalar yasash, noan'anaviy qarorlar qabul qilish kabi mahoratlarni o'zida mujassam etadi.

2. Ma'naviy-axloqiy sifatlar: yangilikka intilish, kommunikativ munosabatlarda ijobiy ma'nodagi qat'iyatlilik zohir qilish, o'z fikrini lo'nda, ta'sirli va ixcham tarzda yetkaza bilish, namunali ichki qiyofaga ega bo'lish kabi sifatlardan iborat.

3. Emotsional-psixologik sifatlar: doim o'z bilimidan qoniqmaslik, o'z faoliyatiga qiziqish, ichki motivatsiyaning mavjudligi, muammolar yechimiga astoydil kirishish, doim yangilik topishga intilish, o'zining kreativ shaxs ekanligini ich-ichdan his qilish va shu kabi sifatlardan tarkib topadi.

Sanab o'tilgan kasbiy va shaxsiy sifatlarning mavjudligi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mavjud kreativlik potentsiali haqida fikr yuritish imkonini beradi. Diversifikatsiya tamoyili asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini oshirishda o'quv jarayonining bosqichlarini aniqlashtirish va har bir bosqich bo'yicha metodik tavsiyalar hamda variantli loyiha ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqib, diversifikatsiya tamoyili asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik potensialini rivojlantirishning funksional modeli ishlab chiqildi. Model uchta blokdan iborat: 1) maqsadli blok; 2) mazmunli blok; 3) diagnostik blok.

Modelning maqsadli bloki diversifikatsiya tamoyillari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini oshirishning zarurati, maqsadi va vazifalarini belgilash hamda kreativlikni rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarni o'rganib, tahlil etish uchun belgilab olindi.

Modelning mazmunli blokida o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish shakllari, vositalari, innovatsion variativ texnologiyalar hamda talabalarni mustaqil o'zlashtirishga o'rgatish uchun texnik dasturiy sayt – *potensial.uz* dan foydalanish ko'rsatib o'tilgan.

Modelning diagnostik blokida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish bosqichlari, baholash darajalari, mezonlari belgilab berildi. Tadqiqotimiz davomida mazkur modelning mazmun blokini takomillashtirishga e'tibor qaratdik. Model asosida ta'lim jarayonida samarali shakl va metodlardan foydalanishni maqsad qildik.

